



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

“BOSHLANG'ICH TA'LIM INNOVATSION
KLASTERI VA RAQAMLI TA'LIM:
EHTIYOJ, ZARURAT, NATIJA”
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI

Бухоро - 2021

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BOSHLANG'ICH TA'LIM NAZARIYASI KAFEDRASI

Boshlang'ich ta'lism innovatsion klasteri va raqamli ta'lism: ehtiyoj, zarurat, natija

**Respublika miqyosidagi
ilmiy-amaliy konferensiya materiallari
(10 MART, 2021 YIL)**

Tarqatish hududi:
<http://interscience.uz/>
onlayn

Respublika ilmiy-nazariy anjumani tashkiliy qo'mitasi:
Raisi: O.X.Xamidov - Buxoro davlat universiteti rektori.
Rais o'rindbosari: O.S.Qahhorov - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini

A'zolari:

Q.R.To'qsonov, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lism fakulteti dekani.
D.N.Mustafayeva, Buxoro viloyati xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i

G.T. Zaripov, IT, I va IPKTB bo'lumi boshlig'i.

Yu.Yu.Azimov, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lism fakulteti o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rindbosari.

N.O. Safarova, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lism fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rindbosari.

M.Yo.Ro'ziyeva, Boshlang'ich ta'lism nazariyasi kafedrasi mudiri.

G.R.Akramova, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lism fakulteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha mas'ul.

B.S.Jamilova, Boshlang'ich ta'lism nazariyasi kafedrasi dotsenti.

S.Akramova, Boshlang'ich ta'lism nazariyasi kafedrasi o'qituvchisi.

S. G'.Luqmonova, Boshlang'ich ta'lism nazariyasi kafedrasi o'qituvchisi, kotib

ISBN

To'plamga kiritilgan maqola va tezislardagi fikr va ma'lumotlarning to'g'riligiga mualliflar mas'ul.

<u>Ачиева М. С.</u> Мактабгача ва бошланғич таълимда узвийликни таъминлаш давр талаби. .	64
<u>Davronov I E., S.Muhiddinova O'</u> quvchi salomatligini muhofaza qilish omillari.....	66
<u>I.E.Davronov</u> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish.....	67
<u>Бердиева М. М. Хушбокова З. Ф.</u> Бадиий адабиёт воситасида мактабгача ёшдаги болаларни маънавиятини шакллантириш долзарб педагогик муаммо сифатида.....	68
<u>Rajabova I. Qosimova M.</u> MTTda bolalarmi intellektual rivojlantirishda o`yin mashg`ulotlarining ahamiyati	71
<u>Бердиева М М., Жумаева М. Э.</u> Миллий қадриятлар орқали мактабгача ёшдаги болаларни эстетик тарбиялаш	73
<u>Чиналиева А.</u> Уқитувчини инновацион фаолиятга тайёрлаш	74
<u>Uktamova M. Nosirova D.</u> Methodology of comparative teaching of the author to the sources of folklore in primary school lessons.....	77
<u>Мансурова X.</u> Бошланғич синфларда она тили фанидан интеграция ва узвийликни таъминлашда иншонинг ахамияти	78
<u>Жабборова М.</u> Биология таълимида интегратив технологиялардан фойдаланиш	79
<u>Ибрагимов Д.А.</u> Ахборот асрида ёшлар маънавиятига мафкуравий тазиикларнинг таъсири.....	82
<u>Машарипов Ж</u> Соғлом бўлишга жисмоний ва руҳий жиҳатдан камол топишга йўналтирилган кўникма ва малакаларни шакллантириш	84
<u>Сайтметов О.Б.</u> Жамоатчилик назорати механизмларини ривожлантиришнинг ўзига хос жиҳатлари	85
<u>Курязова Н.</u> Применения pirls в начальных классах (австрийский опыт)	86
<u>Кучкарова М.</u> Информационные технологии как метод влияния.....	89
<u>Sariyev Sh.U.</u> Boshlang'ich sinflarda nutq o'stirish jarayonida fanlararo integratsiya va uzviylikni ta'minlash	92
<u>Усманова С.Э., Бозорова Б. Ч.</u> Болаларни мактабгача таълим муассаларида маънавий-аҳлоқий қадриятлар руҳида тарбиялаш аспектлари.....	94
<u>Yoldosheva Sh.</u> Integratsiya – dars samaradorligini oshirish omili	97
<u>Усманова С., Эргашева Г.</u> Мактабгача таълим муассасаларида касб - хунарга йўналтириш масалалари.....	99
<u>Хамдамова М. Дж., Абдурахманова А.</u> Импульсивное поведение в младшем школьном возрасте	101
<u>Пулотова Ю.А.</u> Она тили ва ўқиши дарсларини интеграциялашда ахборот - ресурс таъминоти	103
<u>Axmedova D., Mametjumayeva G.</u> Boshlang'ich sinflarda badiiy asar matnini tahlil qilish usullari.....	107
<u>Hamidova I.</u> Problems of translation of "spirituality" units in uzbek and english dictionaries... 109	

O'QUVCHI SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISH OMILLARI

*I.E.Davronov, BuxDU o'qituvchisi
S.Muhiddinova, BuxDU magistranti*

Hozirgi – taraqqiyot dinamizmi juda kuchli bo'lgan davrda yoshlarni jismoniy, ruhiy, axloqiy va ijtimoiy himoya qilish jamiyatdagi ijtimoiy institutlar (oila, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, huquq-tartibot organlari) oldida o'z yechimini kutayotgan birlamchi dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Bu yaqinda yuzaga kelgan muammo emas, uning ildizlari o'tgan ikki asrlar davomida, ya'ni hozirgi tipdagi ta'lim tarqala boshlash davridan beri shakllanib kelgan. Ushbu muammo ko'plab olimlar diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etib kelgan va uning turli xil yo'nalishlarida turli-tuman, bir-biridan qiziqarli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Yoshlarga individual yondashuv orqali ular salomatligini muhofaza qilish nazariyasini shakllantirishning konseptual asoslari ilmiy-metodik yo'nalishida o'quvchi faoliyati (K.A. Abulxanova, B.G. Ananev, M.Y. Basov, A.A. Bodalev, L.S. Vigotskiy, A.N. Leontev, L.S. Rubinshteyn, D.B. Elkoni, V.A. Yadov), zamonaviy pedagogik nazariyalar (Sh.A. Amonashvili, L.V. Zankov, V.A. Kan-Kalik, V.A. Slastyonin), ta'lim–tarbiya asoslari (L.G. Tatarnikova, V.V. Kolbanov, V.K. Zaytsev, S.V. Popov) kabi ilmiy tadqiqotlarda o'z aksini topgan.

Butun dunyo Sog'likni saqlash tashkiloti Nizomida barcha davlatlar uchun tavsiya etiladigan muhim ko'rsatmalar mavjud:

- sog'lik bu nafaqat kasallik? yoki biror bir nuqson bo'lmasligi, balki insonda jismoniy, ruhiy va ijtimoiy kamchilik bo'lmasligi hamdir;
- insonning irqi, dini, siyosiy e'tiqodi, ijtimoiy, iqtisodiy holatidan qat'iy nazar - sog'likning oliy darajadagi holatiga erishish har bir insonning haq-huquqi hisoblanadi;
- har qanday davlat hukumati o'z xalqlari salomatligi uchun javobgar bo'lib, sog'likni saqlash sohasida tegishli ijtimoiy va tibbiy, sanitar choralarни ko'rishga mas'uldir;

Inson sog'lig'i jamiyat taraqqiyoti ustuvor tomonini aks ettiradi va uning uzoq umr ko'rishi davomida jismoniy, ruhiy, ijtimoiy farovonligiga bog'liq bo'ladi.

O'rta umumta'lim maktabalarida o'quvchilarga individual yondashuv orqali salomatlikni muhofaza qiluvchi muhitni shakllantirishning konseptual asoslari sog'likning quyidagi jihatlari bilan bog'liqdir:

- salomatlik yaxlit kompleks, lekin ko'p qirrali tabiiy holat;
- salomatlikning genetik asoslari aniq bir ijtimoiy-iqtisodiy muhitda rivojlanadi;
- salomatlik inson tomonidan ma'lum bir ijtimoiy vazifalarni bajarishi uchun zarur bo'lgan tabiiy asos ekanligi.

Inson salomatligi uning tabiiy-ijtimoiy kuchi sifatida, individual-yosh xususiyatlariga ko'ra somatik (fiziologik), psixologik, siyosiy-ijtimoiy, axloqiy va ta'lim-tarbiya tarkibiy qismlarini o'zida mujassamlashtiradi. Aynan shu qismlarga sog'liqni shakllantiruvchi va uni rivojlantiruvchi asos kabi qarash o'ziga xos konseptual yondoshish bo'ladi. Unda axloqiy, ruhiy, pedagogik komponentlar tashqi himoyaning ustuvor vositasi bo'lib, insonda sog'gom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantiradi. Ular sog'liqni saqlash va organizm psixofiziologik imkoniyatlarini rivojlantirishga safarbar etuvchi kuch sifatida maydonga chiqadi. Shu sababli ham maktablarda o'quvchilar salomatligini muhofaza qilish va uni rivojlantirishda ularga individual yondashuv orqali salomatlikni muhofaza qiluvchi muhitni shakllantirish konseptual asoslarining amaliyligi birlamchi talablardan hisoblanadi.

O'rta umumta'lim maktabalarida o'quvchilar salomatligini muhofaza qiluvchi muhitni shakllantirishning konseptual asoslari ilmiylik, tabiiylik, anglanganlik, faol harakat, aniq samaradorlik va yuqoriga qarab o'suvchanlik kabi yondashuv orqali amaliyotga joriy etilsa, u o'z maqsadiga erishadi. Aynan shu jihatlardan kelib chiqqan holda unga xos bo'lgan xarakteristik jihatlarni quyidagicha ifodalash mumkin bo'ladi:

- salomatlikni muhofaza qilishning sog`lik qadr-qimmati, sog`lom turmush tarzi va shaxs madaniyatini anglashga yo`naltirilganligi;
- salomatlikni muhofaza qilish asoslarining dogma (qotib qolgan g`oya) bo`lmay, doim ijodiy yangilanib borishi va unda o`qituvchi va o`quvchilar uchun birgalikda faoliyat olib borishlarida tanlash imkoniyatining keng mavjudligi;
- salomatlikni muhofaza qilish kontseptsiyasi ishni yangi texnologiyalar asosida tashkil etilishining qulaylik imkoniga ega ekanligi;
- salomatlikni muhofaza qilish kontsepsiyasini amalga oshirishda pedagoglarning o`z bilim-tajribalarini va o`quvchilarning o`z istak-tilishlarini to`liq namoyish etishlariga imkoniyatning kattaligi;
- maktablarda o`quvchilarga individual yondashuv orqali salomatlikni muhofaza qiluvchi muhitni shakllantirish kontseptsiyasi asoslaridan kelib chiqqan holda ushbu jarayonning o`qituvchi va hatto o`quvchilarning o`zлari uchun ham juda qiziqarli bo`lishi, unda “bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun” sinf, maktab o`quvchilari yahlit monolit jamosining shakllanishi istiqbolining mavjudligi.

O`rta umumta`lim maktablarida o`quvchilarga individual yondashuv orqali salomatlikni muhofaza qiluvchi muhitni shakllantirishning kontseptual asoslari boshqa barcha ilmiy nazariy va amaliy kontsepsiyalar singari bir necha yo`nalishdagi g`oyalarni o`zida mujassamlashtirgan bo`lib, hajmi jihatdan juda keng ko`lamli, mazmun-mohiyati jihatdan juda mukammal bir tizimdir. Shu sababdan uning yo`nalishlari o`z ichki xususiyatlardan kelib chiqqani holda alohida sohaga o`hshaydi. Shunday bulsada, kontsepsiya sifatida ularni yahlit monolit qilib birlashtirib turgan asos bu hozirgi davrda juda dolzarb bo`lgan “yoshlar va ularning himoyasi” ijtimoiy yo`nalgan jamiyatimizda davlat siyosatining ustivor yo`nalishi hisoblanadi. Bu esa ushbu yo`nalishdagi maxsus ilmiy izlanishlarning keng ko`lamda olib borilishini taqozo etadi.

BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARIDA IJODIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

*I.E.Davronov,BuxDU o`qituvchisi
T.Sh.Ergasheva,BuxDU magistri*

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida amalga oshirilayotgan islohotlar shu yosh avlodni har bir insonni o`z imkoniyatlarini ro`yobga chiqara oladigan erkin, ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashga yo`naltirilgan. O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g’risida”gi Qonuni barkamol shaxs tarbiyasiga asosiy e’tibor qaratilgan. Chunki, o`z bilimi, salohiyati, imkoniyatlarini jamiyat taraqqiyotiga to`liq sarflab, mustaqil fikrlay oladigan ijodkor shaxslarni shakllantirish, jamiyatda tub o`zgarishlar bo`lishiga zamin yaratadi. Hozirgi davrda zamonaviy texnika va texnologiyalarning hayotga kirib kelishi inson faoliyatida, ijtimoiy ongida katta o`zgarishlar bo`lishini taqozo etmoqda. Zero, olam to`g’risida va insonning hayotda tutgan o’rni to`g’risidagi tasavvurlari o`zgarmoqda, tafakkuri va olamni tushinishning yangi usullari shakllanmoqda, ma’naviy-amaliy o`zlashtirishning yangi vositalari va usullariga o’tish yuz bermoqda. Boshlang`ich sinf o`quvchisining faoliyatida ijodkorlik uning samarali ta’lim faoliyatini belgilab beruvchi ilmiy tasavvurlari evristik ta’limning pedagogik asosi sanaladi. O`quvchidagi bilish jarayoni ijodkorlik natijasida yuz beradi. Izlanishlar jarayonida ijodkorlik faoliyati namoyon bo`lishi uchun aniq maqsadga yo`naltirilgan, rejalashtirilgan, me’yorlarga ega bo`lgan, o`z-o`zini anglagan faoliyat zaruriyati seziladi. Bu esa o`quvchida atrof-olam ob’ektlari va ular haqidagi bilimlarni o`zlashtirish; ta’lim samaradorligini vujudga keltirish, faoliyatning avvalgi turlariga tayanishni taqozo etadi. O`quvchi shaxsini rivojlantirishga yo`naltirilgan ta’lim jarayonida uning aqliy- intellektual, ijodiy xususiyatlari namoyon bo`ladi. Bu borada, ayniqsa, boshlang`ich sinf o`quvchilarining ta’lim jarayonida ijodiy faoliyatini shakllantirish imkoniyatlari kengroq bo`lib hisoblanadi. Chunki boshlang`ich ta’limda o`quvchilarning aqliy qobiliyati, diqqati fikrlash darajasi faol rivojlanadi. Bir qator psixolog va pedagog olimlar: A.V.